

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI ILMIY TADQIQOT
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

SAPARNIYAZOV SANSIZBAY KADIRNIYAZOVICH

**TALABA-YOSHLARNI SPORT MUSOBAQALARIGA TAYYORLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Saparniyazov Sansizbay Kadirniyazovich

Talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini
takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari..... 3

Сапарниязов Сансызбай Кадирниязович

Педагогические условия совершенствования системы подготовки
студентов к спортивным соревнованиям..... 23

Saparniyazov Sansizbay Kadirniyazovich

Pedagogical conditions of improving the system of preparing students for
sports competitions..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 48

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019. Ped. 28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON PEDAGOGIKA FANLARI I LMIY TADQIQOT
INSTITUTI QORAQALPOG‘ISTON FILIALI**

SAPARNIYAZOV SANSIZBAY KADIRNIYAZOVICH

**TALABA-YOSHLARNI SPORT MUSOBAQALARIGA TAYYORLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK
SHART-SHAROITLARI**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2193 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.jtsu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Raximov Baxtiyor Xudayberdiyevich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ma'murov Bahodir Baxshullayevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yakubov Fazliddin Muxitdinovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "17" 01 soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko'chasi, 15-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76, Web-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti "Madaniyat" saroyi, 2-qavat, kishik konferentsiyalar zali

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (0119 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" 01 kuni tarqatilgan.
(2024-yil 10-dekabrdagi 83-son reyestr bayonnomasi).



R.M. Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, pedagogika fanlari doktori
(DSc), professor

Sh.Sh. Gaziye
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, pedagogika fanlari doktori
(DSc), dotsent

M.S. Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo rivojlanishning zamonaviy bosqichi global raqobat kuchayishi sharoitlarida millatning barcha yoshdagi aholisi sog'lom dunyoqarashi, jismoniy, ma'naviy-intellektual salomatligini asrash va mustahkamlash to'g'risidagi yondashuvlarni ko'rib chiqish, inson salomatligi masalasiga alohida e'tibor berish, tabiatning inson ta'sirida tobora o'zgarib borishi natijasida fiziologik imkoniyatlarini rivojlantirish bilan birga o'z salomatligiga g'amxo'rlik qilish, inson salomatligini o'rganishga qaratilgan fan va sohalarni yanada rivojlantirish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Jismoniy tarbiya va sport sohasiga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, talaba yoshlarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish darajasini oshirish, sog'lom turmush tarzini ommalashtirish tizimini ishlab chiqish, jismoniy va intellektual salohiyatini uyg'un rivojlantirishga qaratilgan jismoniy tarbiya ham sport mashg'ulotlarining zamonaviy shakli, samarali vositalar asosida metodikalarini yaratish dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon ta'lim tizimlarida talaba yoshlarni sport musobaqalari yordamida tayyorlashda sportga bo'lgan motivatsiyasining ilmiy ahamiyatini tahliliy o'rganish, ta'lim oluvchilarning jismoniy rivojlanganlik darajasini oshirishning amaliy asoslarini takomillashtirish masalalari keng o'rganilmoqda. Talaba yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda motivatsiyani shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, ularning salomatligi va jismoniy tayyorgarligini oshirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini hisobga olgan holda, sport kompetensiyalarini shakllanganlik darajalarini baholash hamda sport mashg'ulotlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Respublikamizda so'ngi yillarda jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish, yoshlar o'rtasida milliy sport turlarini va xalq o'yinlarini rivojlantirish, yurtimizning chekka hududlari ham qishloqlarida sog'lomlashtirish ishlarini yanada rivojlantirish, vazirlik, idora hamda tashkilotlar xodimlarini, aholini sport tadbirlariga jalb qilish, milliy olimpiada sport o'yinlarini o'tkazish dasturini ishlab chiqish ularni amalga oshirish, sport o'yinlari o'tkaziladigan sport ob'ektlari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. "Olimpiya va Paralimpiya harakatini rivojlantirish, olimpiya o'yinlariga kiritilgan sport turlarini rivojlantirish, paralimpiya sportchilari orasida sog'lom turmush tarzini yanada rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, sport turlarini rivojlantirish maqsadida eng ilg'or va innovatsion texnologiyalarni jalb qilish va iqtidorli sportchilarni saralab olish hamda maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish"¹, jahon sport arenalarida raqobatbardosh, istiqbolli, yurtimiz sha'nini munosib himoya qiladigan sportchilar bilan ko'p yillik tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tkazish va tashkillashtirish asosiy vazifalardan sanaladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ni tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni. <https://lex.uz/acts/-3226019>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-martdagi PF-5368-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoni, 2022-yil 18-fevraldagi PQ-136-son “Sportni rivojlantirish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-fevraldagi 118-son “2019-2023-yillardavrida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorlarida va sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘zda tutilgan vazifalarni samarali amalga oshirish uchun mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirda vatanimiz taniqli olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va amaliyoti muammolariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu borada talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari va o‘larning jismoniy tayyorgarligini oshirish maqsadida mashg‘ulot va musobaqa faoliyati jarayonida jismoniy hamda texnik-taktik tayyorgarlik bo‘yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan bir qancha ilmiy, tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. T.S.Usmonxo‘jayev, F.A.Kerimov, X.B.Tulenova, N.N.Malinina, B.B.Nigmanov, P.Xodjayev, K.Raximkulov, V.Sh.Raximov, R.D.Xalmuxammedov, M.A.Aslova, R.S.Salomov, N.R.Gaziyev, D.K.Ismagilov, Sh.X.Xankeldiyev, K.B.Muxammadiyev, A.A.Abdullayev va boshqalar² o‘zlarining ishlarida jismoniy tarbiya va sport

² Usmonxo‘djaev T.S. Harakatli o‘yinlar: o‘quv qullanma. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – B.48-49; Керимов Ф.А. Теоретико-методические направления совершенствования и структуры дисциплины спортивная борьба: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – М. 1995. – 40 с.; Tulenova X.B., Malinina N.N. Umumrivojlantiruvchi mashqlarni o‘rgatish metodikasi. – Toshkent, 2004. – B. 23-31; Nigmanov B., Xo‘jaev P., Raximkulov K. Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi (Sport o‘yinlari): o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: TDPU, 2008. – B. 16-17; Рахимов В.Ш. Технология физического развития и подготовленности студентов, проживающих в экологически неблагоприятных условиях (на примере Хорезмской области): Автореф. дис.... канд. пед. наук. – Т., 2008. – 25 с.; Халмухаммедов Р.Д. Технология подготовки единоборцев на этапах годового цикла: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. – Ташкент, 2009. – С. 25-29; Aslova M. Ta‘lim jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish (Boshlang‘ich sinflarning jismoniy tarbiya darslari misolida): Ped. fan. nom. ... dis. – Navoiy, 2009. – 153 b.; Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubi (II-jild). – Toshkent: O‘zDJTI, 2015. – 200 b.; Gaziev N.R. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. – Toshkent: ITA-press, 2018. – 212 b.; Исмагилов Д.К. Разработка методов оптимизации физического совершенствования студентов на основе спортивно-ориентированного физического воспитания: Автореф. дис. ... (PhD). – Чирчиқ. 2018. – С. 26-27; Хангельдиев Ш.Х. Физический статус учащейся молодежи. Монография. – Ташкент, 2018. – 432 с.; Muxammadiyev K.B. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari jarayonida talabalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishni ilmiy-pedagogik asoslash: Ped. fan. d-ri (DSc). dis. .. avtoref. – Chirchiq, 2022. – 56 b.; Abdullaev

mashg'ulotlarini tashkil qilish shakllari, vosita va uslublarini takomillashtirishga qaratilgan masalalarni yoritib berganlar.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida B.A. Ashmarin, E.G. Babushkin, Yu.V. Boltikov, A.A. Dyatlova, E.P. Ilin, S.L. Rubinshteyn, S.V. Timofeyev³ va boshqalar tomonidan ilmiy o'rganilgan. Shuningdek talaba-yoshlarda sport bo'yicha motivatsion turkum sifatleri, sport o'yinlari motivlari, hamda sportchining shaxsiy fazilatleri bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari izlanishlarni O.A. Markiyonov, N.L. Ilina, A.A. Krilov, A.V. Shaboltas⁴ va boshqalar tomonidan olib borilgan. Ammo ushbu o'rganilgan dissertatsiya va ilmiy adabiyotlarda talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitleri to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar berilmagan.

Jahonning ko'plab mamlakatlari olimlari tomonidan talaba yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan motivatsion qarashlariga doir keng qamroli nazariy ilmiy izlanishlar, J.P. Cuilford, R. Martens, A. Maslow, S. Weinberg & D. Gould⁵ kabi olimlar tomonidan batafsil o'rganilganligi ahamiyatli.

O'rganilgan adabiyotlar tahlillariga ko'ra, pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalarini sport musobaqalariga tayyorlash, talabalar motivatsiyasini shakllantirishda nazariy bilimlarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining turli sohalaridagi bilimlar va tajribalar bilan bog'lash ko'nikmasini o'zlashtirish muhim rol o'ynaydi. Sport mashg'ulotlariga tayyorgarlik keng ko'lamli ijtimoiy-madaniy hamda tarbiyaviy jarayon sifatida, har bir insonning ma'naviy va jismoniy barkamolligi, mehnat jamoasi hamda mahalla muhitida faol ishtirok etish, ko'pchilikka ibrat, na'muna bo'lish ma'nosini bildiradi. Unda mehnat jarayonida yuksak samaralar keltirish, madaniy, ommaviy va sport musobaqalarida doimiy ishtirok etish kabi jihatlar mujassamlashadi.

A.A. Xalq o'yinlari vositasida o'quvchilarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fan. fals. d-ri (PhD) dis. ... avtoref. – Chirchiq, 2022. – 43 b.

³ Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании (пособие для студентов, аспирантов и преподавателей физ. культуры). – М.: Физкультура и спорт, 1978. – 223 с.; Бабушкин Е.Г. Формирование спортивной мотивации / Е.Г. Бабушкин // ОНВ. 2014. - №1 (125). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/formirovaniyesportivnoy-motivatsii>; Болтиков Ю.В. Влияние мотивационных факторов на результативность учебно-тренировочной работы в секциях спортивной борьбы: Дис. ... канд. пед. наук. – Набережные Челны, 2002. – 157 с.; Дятлова А.А. Характеристики мотивации спортивной деятельности/Дятлова А.А., Ю.М. Ротэрян, В.С. Чернявская// МНКО. 2013 - №6(43). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/harakteristiki-motivatsii-sportivnoy-deyatelnosti>; Рубенштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2002. – 720 с.; Ильин Е.П. Мотивация и мотивы. – СПб.: Питер, 2002. – 512 с.; Тимофеев С.В. Особенности мотивации студенческого спорта. С.В. Тимофеев // Статья в сборнике трудов конф. 2018 (281). URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37125358>.

⁴ Маркиянов О.А. Соревновательный метод формирования мастерства юных спортсменов: Дис. ... д-ра пед. наук. – М.: 1997. – 350 с.; Ильина Н.Л. Динамика мотивации на протяжении спортивной карьеры: Дис. ... канд. психол. наук. – СПб., 1998. – 181 с.; Крылов А.А. Некоторые проблемы психологии спорта в современном мире // Вестник Балтийской педагогической академии. – Петербург, 1998. вып. 14. – С. 46-48; Шаболтас А.В. Мотивы занятия спортом высших достижений в юношеском возрасте: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – СПб., 1998. – 25 с.

⁵ Cuilford J.P. Personality. – New York, 1959. – 82 p.; Martens R. Coaches guide to sport psychology. – Human Kinetics Publishers, INC, 1987. – 195 p.; Maslow A. Motivation, planning and action. A relational theory of behavior dynamics. – Hillsdale, 1984. – 5 p. Weinberg S. & Gould D. Foundations of the sport and Exercise Psychology, 1995. – P. 60-95.

Mavjud adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot ishlarini o'rganib tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqishga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda ularning motivatsiyasini va kasbiy kompetentsiyalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim amalga oshirilmagan. Yuqoridagi fikrlarga tayanib xulosa qilish mumkinki, talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda motivatsiyasini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari bo'yicha ilmiy-uslubiy ma'lumotlar va xulosalar mazkur muammo bo'yicha tadqiqotlarning yetarli emasligi tanlangan mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlar rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filiali ish rejasining A1-XT-0-92997 "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport bo'yicha motivatsiyasini shakllantirishga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlarni aniqlashtirish;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashning texnologik modelini ishlab chiqish, didaktik ta'minotini mazmunan rivojlantirish;

talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorlashda motivatsiyasini shakllantirish texnologiyasini takomillashtirish;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorgarlik darajalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashni takomillashtirish jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashni takomillashtirishning mazmuni, shakli, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid ilmiy manbalar, me'yoriy hujjatlar, o'quv-uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, anketa-so'rovnoma, umumlashtirish, savol-javob, suhbat, pedagogik tajriba, matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda mashg'ulotlarni tayyorgarlik sikllarini inobatga olgan holda optimallashtirishga tayanib ularning jismoniy, funksional va ruxiy holatining pragmativ ko'rsatkichlarini kreativ

rivojlantirish asosida kulminatsion natijalarning intensiv takomillashuviga erishilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarni sport musobaqalariga uzluksiz tayyorlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonining mazmuni tahlil qilish va o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi muhim tamoyillarini ishlab chiqish hisobiga androgogik yondashuvlar takomillashtirilgan;

jismoniy tarbiya darslarida talaba-yoshlarning sport musobaqalariga bo'lgan individual qiziqish va kompetentsiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarini qo'llash asnosida motiv - harakat - natija – refleksiya monoton ko'rsatkichlari takomillashtirilgan;

talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash ularning jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirib yuklamalar hajmini proporsiyalarga ajratib qo'llash asnosida funksional holatining barqarorligini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarni integratsiya qilish samaradorligi oshirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashga yo'naltirilgan dasturi, "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" nomli o'quv qo'llanmaga singdirish orqali talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashning pedagogik shart sharoitlari moslashtirilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorlashga qaratilgan differentsial, evristik va loyihalash kabi ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

pedagogika oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorlashga qaratilgan "Talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorlash" dasturi ishlab chiqilgan va ilmiy asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosidagi ilmiy anjumanlar materiallari to'plami, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining ustuvor yo'nalishlarini belgilash maqsadida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari, talabalarining jismoniy tayyorgarligini oshirish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar natijalari bo'yicha mashg'ulot ishlanmalari va sxemalarini ishlab chiqish, shuningdek, jismoniy tarbiya xodimlari, murabbiylar, oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini ilmiy-metodik ta'minlash, talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorgarligini rivojlantirishda motivatsiyasini shakllantirishning innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanib jismoniy tayyorlashning modeli va didaktik ta'minoti yaratilganligi uslubiy asos sifatida belgilangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan oliy ta'lim muassasalari talabalarining jismoniy tayyorgarligini

o'shish bo'yicha mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishda nazariy va ilmiy-uslubiy asos sifatida talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga joriy etish asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini takomillashtirish, jismoniy rivojlanish, jismoniy tayyorgarlik va funksional holat dinamikasini kuzatish orqali tayyorgarlikdagi o'zgarishlarni tahlil etish va tashxislash, talaba-yoshlarining sport mashg'ulotlariga tayyorgarligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga qaratilgan "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" o'quv qo'llanmasi hamda "Talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorlash" dasturi ishlab chiqilgani va amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda mashg'ulotlarni tayyorgarlik sikllarini inobatga olgan holda optimallashtirishga tayanib ularning jismoniy, funksional va ruxiy holatining pragmativ ko'rsatkichlarini kreativ rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar "Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga sindirilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 01-03/3773-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan o'quv qo'llanma talaba-yoshlarning sport musobaqalariga tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarni sport musobaqalariga uzluksiz tayyorlashga yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonining mazmuni tahlil qilish va o'zgarishlarni amalga oshirish qobiliyatini ifodalovchi muhim tamoyillariga oid tavsiyalari "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari" (2017-2020-yillar) mavzusidagi amaliy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 01-03/3773-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan texnologik model talaba-yoshlarning sport mashg'ulotlariga tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jismoniy tarbiya darslarida talaba yoshlarning sport musobaqalari uchun zarur bo'lgan operativ motivlarini hamda sport kompetentsiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan evristik va loyihalash texnologiyalarini qo'llash talablari raqobatbardoshlikning maqsad - motiv - harakat - natija – refleksiya monoton ko'rsatkichlarini muvofiqlashtirish va musobaqaoldi jismoniy va ruhiy tayyorgarlik bosqichlarining xususiyatlarini baholashga oid "Talaba-yoshlarni sport mashg'ulotlariga tayyorlash" dasturi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialidagi talabalarning mashg'ulot jarayoniga tatbiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 01-03/3773-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan dastur va metodik tavsiyalar talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorgarlashga xizmat qilgan;

talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash ularning jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirib yuklamalar hajmini proporsiyalarga ajratib qo'llash bo'yicha taklif va tavsiyalar O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport

universiteti Nukus filialidagi talabalarning mashg'ulot jarayoniga tatbiq etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Sport vazirligining 2024-yil 27-iyuldagi 01-03/3773-son ma'lumotnomasi). Natijada talaba-yoshlarni mashg'ulot vositalarini variatsion qo'llash darajasini operativ aniqlash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 27 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 9 tasi respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda 1 ta o'quv qo'llanma chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya ishi 127 bet kompyuter matnida bayon etilgan bo'lib, kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, 11 ta jadval, 8 ta rasm, xulosa, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'yekti, predmeti, shuningdek, ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida motivatsiya talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashda psixologik-pedagogik omil, sport faoliyatining motivatsiyasi va uning talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlash jarayonida tutgan o'rni, talaba-yoshlarning jamoaviy motivlarini shakllantirishning xususiyatlari, shartlari hamda talablari o'rganilgan.

Shaxsning xulq-atvor va kundalik faoliyatning turg'un motivlari yig'indisi sifatida motivatsiya samarali faoliyatning asosi, qoida tariqasida, pedagogik komponentlar, amalga ochiriladigan funktsiyalarning tabiati va olingan natijalarning sifat xususiyatlariga asoslanib tasniflanadi. Motivatsiya motivlar (sub'yektni samarali faoliyatga undash), maqsadlar (rejalashtirilgan faoliyatning pedagogik bashorat qilingan natijalari) va operatsiyalar (ularning yordami bilan faoliyat amalga oshiriladi) sifatida tushuniladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida talaba yoshlarning sportga bo'lgan qiziqishi, qobiliyati, ehtiyoji, dunyoqarashi, psixologik xususiyatlari, faolligi va boshqa xususiyatlarining shakllanishida motivatsiya muhim ro'l egallaydi.

Pedagogikada motivatsiya ko'pincha shaxsning kasbiy va kundalik faoliyatining o'zaro bog'liq bo'lgan, uning jamiyatdagi xatti-harakatlari chizig'ini ongli ravishda pedagogik jihatdan belgilaydigan motivlar tizimi sifatida qaraladi. Bu maktab o'quvchisi, oliy ta'lim yurti talabasi, mutaxassis shaxsining yetakchi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan ijodiy shakllanishni aks ettiradi. Bizga ma'lumki,

sport motivatsiyasi-bu odamni sport bilan shug'ullanishga undaydigan omil bo'lib, pedagog-psixolog olimlar uning uchta turini ajratib ko'rsatadi. Bular: ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya va vositali motivatsiya.

Ichki motivatsiya-bu insonning o'zidan kelib chiqadigan motivatsiya. Bu maqsadga erishish istagi va mashg'ulot jarayonidan qoniqish bilan bog'liq. Ichki motivatsiya bo'yicha sport bilan shug'ullanadigan kishi nafaqat natijadan, balki jarayondan zavq oladi. Unga misol sifatida natijalarni yaxshilash istagi, shaxs o'zini sog'lom va baquvvat his qilish istagi, shaxsiy ko'rsatkichlarni yaxshilash istagi kabilarni misol qilish mumkin.

Tashqi motivatsiya-bu sportchiga boshqalar (trenerlar, murabbiylar, onalar) ning maqtovlari kabi tashqi omillardan kelib chiqadigan motivatsiya. Tashqi motivatsiya bo'yicha sport bilan shug'ullanadigan kishi tashqi tan olinishga intiladi. Bunday motivatsiya uchun natijalar jarayondan ko'ra muhimroqdir. Tashqi motivatsiyaga musobaqada g'olib bo'lib, Vatan bayrogini baland ko'tarish, katta sport jamoalari tomonidan e'tirof etilish, sport sohasidagi nufuzli reytinglarga kirish va boshqalarni misol qilish mumkin.

Vositali motivatsiya esa sport bilan muntazam shug'ullanish orqali o'z moddiy va yashash sharoitlarini yaxshilash, mukofotlar, sovg'alar va rag'batlantirish, qarindoshlar va do'stlar tomonidan rag'batlantirish olish istagi bilan izohlanadi.


Sport psixologiyasi, pedagogikasi, diyetologiyasi, rehabilitatsiyasi va tibbiyoti bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari, yaratilgan ilmiy-uslubiy tavsiyanomalar, o'quv-qo'llanmalar, darsliklarda talaba yoshlarda sport motivatsiyasini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmaganligini ko'rishimiz mumkin. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab talaba yoshlar jismoniy tarbiya, dam olish va harakatli rehabilitatsiya, musobaqaoldi motivatsiyasining ahamiyatini yetarlicha aniq tushunmaydilar. So'nggi o'n yilliklarda talaba yoshlar orasida jismoniy tayyorgarlik va sport motivatsiyasi darajasining pasayishi tendentsiyasi kuzatilmoqda.

Sport motivatsiya ehtiyojni anglash, maqsadni belgilash va vaziyatlarni hisobga olgan holda kurashish ehtiyojini anglatishini hisobga olsak, talaba yoshlarning sportga kirish motivlarini (sport turidan qat'i nazar) o'z-o'zini takomillashtirish istagi (salomatlikni mustahkamlash, jismoniy holatni yaxshilash, jismoniy va ixtiyoriy fazilatlarini rivojlantirish); o'z-o'zini ifoda etish va o'zini tasdiqlash istagi (boshqalardan yomon bo'lmaslik, taniqli sportchi kabi bo'lish istagi; jamoatchilik tomonidan tan olinishga intilish; jamoa, shahar, mamlakat sharafiga himoya qilish, qarama-qarshi jins vakillari uchun jozibali bo'lish istagi); ijtimoiy munosabat (sport modasi, oilaviy sport an'alarini saqlab qolish istagi, armiyada ishlashga va xizmatga tayyor bo'lish istagi); ma'naviy ehtiyojlarni qondirish (sport jamoasi yoki sport maktabining a'zosi kabi his qilish, o'rtoqlar bilan muloqot qilish, shahar va mamlakatlarga sayohat qilishda yangi taassurotlar olish istagi) motivlari tashkil etishini ko'ramiz.

Shuningdek ushbu bobda musobaqa oldidan talaba yoshlarning sport motivatsiyasini boshqarishda musobaqalarga bevosita tayyorgarlik ko'rish va musobaqaga chiqishda ijobiy emotsional muhitni ta'minlash; talaba yoshlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda musobaqaoldi tayyorgarlik

bosqichini rejalashtirish va qurish; murabbiylarning sportchilar bilan qulay pedagogik hamkorligini ta'minlash; talaba yoshlarning musobaqada muvaffaqiyatli chiqishlarini tizimli tahlil qilish, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarning sabablarini izlab topish va oldini olish yo'llarini asoslash; musobaqaoldi tayyorgarligining barcha bosqichlari va alohida mikrosikllari rejasini ishlab chiqish; mashg'ulot guruhlaridagi talaba yoshlar va murabbiy o'rtasida shaxslararo ijobiy emotsional munosabatlarni shakllantirish; musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichida talaba yoshlarning sport motivatsiyasi darajasini aniqlash va hisobga olish; taktik-texnik musobaqalarga bevosita tayyorgarlik ko'rishda asosiy raqiblarning harakatlarini prognozlash lozimligini asosladik.

Musobaqaga tayyorgarlik va musobaqa davomida, yoki har bir chiqishdan so'ng, sportchining qanday xatolarga yo'l qo'yganligi va keyingi uchrashuvda nimalarga e'tibor berish kerakligi, ishtirokchilarning raqobatbardosh faoliyati samaradorligini tahlil qilish, mashg'ulotlar va musobaqalardagi talaba sportchi sa'y-harakatlarining namoyon bo'lishini tushuntirish uchun "Sababiy sxemalar" motivatsion treningidan foydalanib, motivatsiyaning pasayishi va o'sishini tushuntiruvchi sxemalarni ishlab chiqdik (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talaba-yoshlarda musobaqaoldi tayyorgarligi davrida sport motivatsiyaning pasayishi sabablari


Biz tadqiqotimizni talaba yoshlarni sport musoboqalariga tayyorlashda samarali natijalarga erishishga qaratilgan birlamchi sabab motivlarga tegishli ekanligidan kelib chiqib, talaba sportchilarda haqiqiy maqsadlarni belgilash, qiyinchiliklarni va faoliyat taraqqiyotini rejalashtirish, o'z fikrlarini boshqarishni o'rgatish, jarayondan zavqlanishga o'rgatish, tashqi motivatsiya va motivlarni rivojlantirishga yo'naltirdik.

Sport talaba-yoshlar shaxsini shakllantirishning muhim omili bo'lib, sportdagi ruhiy motivlar sport turlarining xususiyatlari bilan belgilanadi, ammo har qanday

sport turida motivatsiya (ehtiyotlar, motivlar, maqsadlar), vositalar, usullar, shartlar va natijalar bilan izohlanadi.

Jismoniy tarbiya va sport nazariyasiga ko'ra talaba yoshlarning sportdagi maqsadi, musobaqalarga tayyorgarlik davri g'oliblikka erishishda raqobat faoliyati sharoitida amalga oshiriladigan talaba-yoshlarning jismoniy rivojlanish; talaba-yoshlarning jismoniy-pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish; talaba-yoshlarning jismoniy imkoniyatlarini aniqlash, qiyoslash; jismoniy qobiliyatlari yiqori bo'lgan yoshlarning individual imkoniyatlariga muvofiq rivojlantirish talab etiladi.

Talaba yoshlarni musobaqalarga tayyorlashda sport faoliyati komponentlarini quyidagicha tasvirlash mumkin (2-rasmga qarang):



2-rasm. Sport faoliyatining komponentlari


Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sport motivlarini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotda sportchilarning motiv va motivatsiyasi musobaqalarda erishilgan natijasi ta'siri sifatida qaraladi. Yani, sportchining oldingi natijalari uning kelajakdagi faoliyatida motivning shakllanishiga, xususan, keyingi musobaqa motivining shakllanishiga ta'sir qiladi. Demak, motivlar va natijalar o'rtasidagi teskari munosabat sportchining motivatsion sohasini shakllantirishda samarali omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Agar sportchida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lsa va vaziyat omilida muvaffaqiyatga erishish ehtimoli bo'lsa, sportchining asosiy e'tibori muvaffaqiyatga va undan g'ururlanishga qaratiladi. Bugungi kunda "o'ziga ishonch", "muvaffaqiyatga erishish" va "muvaffaqiyatsizlikdan qochish" motivatsion tendentsiyalarini o'rganishga qiziqish biroz kamayib, sportdagi raqobat faoliyatining o'ziga xos xususiyatini, maqsadi, vazifalari, maqsadga erishish vositalari, motivlar kabi komponentlarini o'rganish kuchayib bormoqda.

Sportchining musobaqalarda ishtirok etishi davomida to'plagan tajribasi, g'alaba, mag'lubiyat yoki durang sportchi ruhiy sohasining asosi bo'lib, unga ma'lum bir davr uchun olingan natijalar bilan bog'lanishiga yordam beradi. Sportchiga musobaqalarda keyingi chiqishlari uchun maqsad, motiv, kayfiyat, jismoniy va aqliy ishlash va motivatsiyani shakllantirishda asosiy hisoblanadi va talaba yoshlarda musobaqaoldi sport faoliyatining tuzilishini aniqlashga imkon beradi (3-rasmga qarang).

Sport faoliyatining tuzilishi sportchilar erishgan natijalarga va ularning motivatsion sohasiga ta'sir qilib, unda aniq bir musobaqa uchun motiv

shakllanishining oldingi natijaga bogʻliqligini tekshirishga imkon beradi. Bu oʻquv jarayonini boshqarishda jamoaviy oʻyinlar motivatsiyani saqlashga imkon beradigan usullarni kiritish zarurligini asoslab beradi. Bunda E-M-M-Sh formulasi (bu erda: E – ehtiyojlar; M – motivlar; M – maqsad; Sh – maqsadga erishish uchun shartlar) musobaqa oldi sport faoliyatining tuzilmasi ucnun asos boʻladi.

Demak, sportchining musoboqalarga tayorganlik kórish faoliyati maqsad – motivlar – harakatlar – refleksiya – natija shaklida aks ettirishga imkon beradi.



3-rasm. Talaba yoshlarda musobaqaoldi sport faoliyatining tuzilishi

Dissertatsiyaning “**Talaba yoshlarni sport musoboqalariga tayyorlash bosqishida sport motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik jihatlar**” deb nomlangan ikkinchi bobida talaba yoshlarni sport musoboqalariga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari, sport musoboqalariga tayyorlash modeli, uslubiy-didaktik taʼminoti va amalga oshirish texnologiyasi haqida soʻz yuritiladi.

Talaba-yoshlarni sport musoboqalariga tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni murakkab va uzoq davom etadi, shuning uchun uni amalga oshirishga yordam beradigan pedagogik sharoitlarni tizimlashtirish va tavsiflash tavsiya etiladi. Pedagogik shart-sharoitlar deganda pedagogik tizimning elementlaridan biri tushuniladi, bu taʼlim muhiti imkoniyatlari yigʻindisi boʻlib, uning harakati ushbu tizimga taʼsir koʻrsatish orqali uning samarali ishlashiga yordam beradi.

Tadqiqotimizda pedagogik shartlarning uch guruhini ajratdik: tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik.

Tashkiliy-pedagogik shartlar guruhiga subʼyektlar va oʻquv faoliyatining tashkiliy shakllari oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir qilish usullari toʻplami kiradi, ular talaba yoshlarni sport musoboqalariga tayyorlash tizimini rivojlantirish uchun mazmuniy elementlarni maqsadli rejalashtirish natijasidir.

Psixologik-pedagogik shartlarga biz talabalar shaxsini jismoniy va intellektual rivojlantirishga taʼsir qilishning aniq pedagogik chora-tadbirlarini taʼminlashga

yordam berishga qaratilgan bir qator omillarni olamiz. Shu bilan birga, ta'sir mustaqil fikrlash samaradorligi, harakatlarni odilona baholash, umumlashtirish va yakuniy natijaga erishish kabi xususiyatlarga ta'sir qiladi.

Didaktik shartlar guruhi - bu umumiy maqsadni amalga oshirishga qaratilgan (talabalarning o'zini o'zi belgilashini shakllantirish) mazmun elementlarini, tashkiliy shakllari va usullarini tanlash, loyihalash, ulardan oqilona foydalanish natijasidir.

Musobaqalarga tayyorgarlik bosqichida, orqaga chekinish mikrosikli, shiddatli mikrosikl, qayta tiklash mikrosikllarining har birida talaba yoshlarning hissiy holati va sport motivatsiyasi dinamikasini aniqlashda biz musobaqalarga to'g'ridan to'g'ri tayyorgarlikning uch bosqichga ajratdik, bunda 219 nafar talabaning hissiy holati o'rganildi. Musobaqadan oldingi tayyorgarlik davrida talaba yoshlarning hissiy holatini o'rganishda biz SAN usulidan foydalanib, musobaqalarga bevosita tayyorgarlik bosqichida talaba yoshlarning hissiy holati ko'rsatkichlari (farovonlik, faollik, kayfiyat, mashg'ulot istagi, mashg'ulot jarayonidan qoniqish, o'rtoqlar bilan munosabatlar, murabbiy bilan munosabatlar, sport istiqbollari, musobaqalarga tayyorlik) tahlil qilindi.

Bizning fikrimizcha, ushbu ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, sportchilarning juda yaxshi hissiy holati musobaqadan oldingi tayyorgarlik bosqichining oxiriga kelib, ancha yuqori bo'lishi kerak va hissiy holatni o'rganish va boshqarish talaba yoshlarning psixologik tayyorgarligining ajralmas va muhim qismiga aylanadi.

Musobaqaoldi tayyorgarligi davrida talaba yoshlarning bo'lajak musobaqaga munosabati xususiyatlarini o'rganish, musobaqalarga bevosita tayyorgarlik ko'rishda talaba yoshlar o'rtasida sport motivatsiyasi dinamikasini aniqlash, talaba yoshlarning sport motivatsiyasiga ta'sir qiluvchi omillar va pedagogik shart-sharoitlarni tahlil qilish asosida jamoaviy sport turlari bo'yicha jismoniy mashg'ulotlar jarayonida "Natijalarni o'zgartirish" metodini qo'llashning pedagogik talablalarini takomillashtirdik.


Bunda OTM dagi jismoniy tarbiyaning alohida muhim vazifasi talabalarning harakat faolligiga bo'lgan ehtiyojli motivatsion sohasini shakllantirish hisoblanadi.

Talabalarning jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan yana bir muhim sabablardan biri talabalarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga bo'lgan motivatsiyaning yetarli darajada emasligidir.

Taqdiqot ishining nazariyasi va tahlil etilgan metodologik yondashuvlar talaba-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayonning modelin takomillashtirishga imkon yaratdi (4-rasmga qarang).

Biz taklif etayotgan modelning funktsional aspekti model tarkibidagi to'rt blokining har biri muayyan funktsiyalarni bajarishi bilan ta'minlanadi. Tarkibiy-tuzilmaviy aspekt modelning komponentli tarkibini aniqlaydi va o'zaro bog'liq va bir birini to'ldiruvchi to'rtta blokni o'z ichiga oladi: maqsadli blok, mazmuniy blok, texnologik-jarayoniy bloki va natijaviy-korreksion blok

Maqsad bloki metodik modelning maqsadi va vazifasi-ijtimoiy buyurtma orqali belgilangan OTMda jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish asosida talabalarni sport musobaqalariga tayyorlash tizimini takomillashtirishni nazarda tutadi.



4-rasm. Pedagogika OTM da talaba-yoshlarni sport musobalariga tayyorlashga yonaltirilgan pedagogik jarayon modeli

Maqsadli blokning funksiyasi OTMda talabalarni sport musobaqalariga tayyorlashni bashorat qilinayotgan darajasini aniqlash va asoslash hisoblanadi.

Ushbu daraja OTMda talabal-yoshlarni sport musobaqalariga tayyorlashga qo'yiladigan talablarni asoslaydi.

Mazmunli blok maqsadli, texnologik-jarayoniy, tashxislash va natijaviy bloklar bilan o'zaro bog'liq hamda talaba-yoshlarning faoliyatiga invariant munosabatda bo'lgan oliy ta'limning differentsiallashtirilgan mazmunini o'z ichiga oladi. Mazmunli blok tegishli bosqichlar bo'yicha taqsimlanadi. Sport musobaqalariga tayyorgarlik bosqichida jismoniy tarbiya va sport muhim hisoblanadi va ular talaba-yoshlarning motivatsiyasi shakllantiradi.

Tadqiqotimizda kompetentsiya va kompetentlik tushunchalari bilan uyg'unlikda kasbiy kompetentlik tushunchalari ilmiy o'rganildi. Har bir kompetentsiya o'z navbatida alohida maxsus bilimlar, ko'nikmalar, kasbiy faoliyatning minimal zarur shaxsiy tajribasi, motivlar, qadriyatlarni o'zida mujassam etdi. Mazkur kompetentsiyalarning tegishli komponentlari mazmunini umumlashtirgan holda, kasbiy kompetentlik mezonlari belgilandi:

